

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT
BILAN TANISHTIRISH METODIKASI**

(ma`ruzalar matni)

“Maktabgacha va oila ta`lim metodikasi” kafedrası

Tuzuvchi: dotsent X.J. Jabborova

Toshkent – 2009

1 MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

Maqsad: Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani talabalarga shu fanning maqsad va vazifalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni. vazifalari, bolalarni boqchada tabiat bilan tanishtirish dasturi, dasturning tuzilishi, usul va uslublarini, ish shakllari, tabiat bilan tanishtirish ishiga uslubiy rahbarlik qilish haqida bilim beradi.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida tabiatdan foydalanish.
2. Tabiat va biz.

Mustaqil O'zbekistonning milliy davlatchiligimiz poydevori kun sayin mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda. O'z tarixiy an'analaridan, yashash tarzidan kelib chiqib, ulug' ajdodlarning tajribdalariga tayangan holda ko'p qonunlar yaratilmoqda. 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va uzluksiz ta'limning o'zbek modelini belgilovchi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim-tarbiyaning sifatini yanada yaxshilash vazifasini belgilab berdi. Qonunning asosiy maqsadi ta'lim sohasini isloh qilish, uny o'tmishdan qolgan mafkuraviy, qarashlaridan to'la xalos etish, rivojlangan mamlakatlar darajasida, yuksak ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdir.

Bu qonunni amalga oshirishda ta'lim tizimining birinchi bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha tarbiya muassasalari, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. tabiatini muhofaza qilish, ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati kattadir. Yosh avlodni etuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o'z Vatanini sevuvchi, uni e'zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning urni beqiyos. Bola shaxsining mukammal shakllanishda tabiat, unda bo'ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol oynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari

mujassamlashib, shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, extiyot qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalanadilar.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan. biz tabiatni e'zozlashimiz, unga tugri munosabatda bulib, tabiatni yana ham ko'rkamligiga, abadiyligiga uz hissamizni qo'shishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq, qoynida o'sadi, ulg'ayadi kamol topali. Bolani go'dakligidap boshlab tabiatdan zavq olishga. tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Bu kursni o'qitish jarayonida talabalar tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining tashkil topishga xissa qo'shgan pedagog psixologlarning ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan ham tanishadilar. Sharq mutafakkirlarining tabiat hayotida insonniig tutgan o'rni haqidagi fikrlari va ilmiy asarlarini o'rganadilar. Talabalar tabiat burchangida, haynovot olami, er maydonchasida o'sadigan o'simliklar dunyosi haqida bilimga ega bo'ldilar hamda ularni parvarnsh qilishning ko'nikma va malakalarini egallaydilar.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammodir. Shu sababdan ham bolalar bog'chalarida ham ekologik ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor berilmoqda. Tabiat bilan tanishtirish metodika fanida talabalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish usullari, «Qizil kitob» haqida qisqacha ma'lumot va «Qizil kitob»ga kiritilgan, noyob o'simlik va hayvonot olami haqida ham bilim berishga katta o'rin berilgan.

Shunindek, talabalar bolalar boqchasilagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi yangi tajribalarni ham o'rganib olishlari zarur Buni ular o'sha boqchalarda amaliyotda bo'lgan davrlarida o'rganadilar. Bolalarni tabiat qonun-qoidalari bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to'g'ri o'sib ulg'ayishiga, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligi zedan chiqarmasligimiz kerak. Bog'cha yog'adagi bolalarning xar tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi.

Tabiat rang-barang. Uning imkoniyatlari ham cheksiz. Biz, tarbiyachilar, ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko'ra bilishimiz, ulardan tarbiya jarayonida oqilona foydalanishimiz kerak. Biz nima uchun bolalarni har tomonlama kamol toptirish kerak deyimiz? Chunki inson organizmining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatlar ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq foizini tashkil etadi. Faqat biz tarbiyachi-murabbiylar uni vaqtida parvarish qilsak. uning o'sib voyaga etishi uchun sharoit yaratsak. u, albatta, kurtak yozib xosil beradi.

Ma'lumki, har bir odam shaxsining o'ziga xos xususiyatlari ya'ni ehtiyoji, temperament tinlari, xarakter xislatlari, iste'dodi, qobiliyatlari bo'ladi. Bu xususiyatlarning rivojlanishi shakllanishi bevosita bola yashaydigan muhitga, tevarak-atrofga bog'liq. Demak, bola psixologiyasi ham tabiat bilan chambarchas bog'langan bo'ladi va ular bir-birini to'ldiradi, mustahkamlaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi boqcha sharoitida xilma-xil bo'lib bunda bolalarning xususiyatlari, tabiat haqidagi tushunchasi hisobga olinib, elementar tushunchalardan tortib, bolalarga mos eng murakkab tabiat haqidagi tushunchalarni va tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni bilib olishga o'rgatadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasining ana shunday o'ziga xos shakllari bilan chegaralanmasdan, mavjud o'zgartirish, yangi ish shakllarini ishlab chikish, haet tajribalarini umumlashtirib har bir tarbiyachi uzining yashaydigan muhiti, sharoitiga moe usullarni topib amalda qo'llashlari kerak. Har bir tarbiyachi ijodiy izlanuvchan, kuzatuvchan, tabiatdan ilhom oladigan. hayotda dadil qadam tashlaydigan bo'lmogi kerak Bugungi talaba - ertangi mutaxassis. Shunday ekan hozirgi talabalarga qoyilayotgan talab yanada kattadir. Chunki hayotimiz doimo rivojlanishda, fan-gexnika, ta`lim-tarbiya sohasida yangi-yangi kirralar ochilmokda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tabiat nima?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida tabiatning o'rni qanday?
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishda ushbu sohaning o'rni qanday?
4. Ekologiya nima?

II. MAVZU: TABIAT BILLI TANISHTIRISH FANINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI

Maqsad: Talabalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining tashkil topishi rivojlanishi bilan tanishtirish Sharq mutafakkirlari chet el va rus pedagoglarining inson hayotida tutgan o'rnini haqidagi fikrlari bilan tanishtirish.

Reja:

1. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining tashkil topishida G'arb pedagoglarini qo'shgan hissalari.
2. Bola shaxsining shakllanishida tabiatshunoslikning roli haqida rus pedagoglarning fikrlari.
3. Inson hayotida tabiatning tutgan o'rnini haqida O'rta Osiyo alomalarining fikrlari.

Ilm - fan, ma'rifat - madaniyat asrlar davomida insoniyat olamida so'nmas mash'al bo'lib, yoritib kelgan. Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan bugungi kunda bu mash'al tobora porlab, o'zgacha ahamiyat kasb egmoqda. Bizga ma'lum bo'lmagan tarix zarvaraqlari qatida pinhona yotgan qadpiyatlapimiz, noyob qo'lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz istiklol sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o'rganilmoqda. Tarix - insonning barkamollik, taraqqiyot yo'li. Moziyii bilmaslik o'zini anglamaslikdir. O'zini anglagan xalqgina buyuk kishilarning nomlarini e'zozlab ruhi poklarini doimo yod etadi. Agar biz o'tmish tariximizga, nazar tashlasak, yashab ijod etgan pedagoglarimiz o'zlari ijod etgan davrlardayoq bolaning har tomonlama usishida, ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matlari uning mo'jizalaridir deb ta'kidlab o'tganlar.

Tarix zarvaraqlarida o'zlarining o'chmas, unutilmas nomlarini qoldirgan buyuk pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati. uning bola ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy fikrlari i aytib utganlar.

Ushbu mavzuni o'rganishda biz G'arb pedagoglaridan: Y.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestolotsiy kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o'rnini haqidagi ilmiy asarlari bilan tanishamiz.

Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiyning, "Inson tarbiya predmeta sifatida" asari bilan tanishamiz.

Ushinskiy "Meni pedagogikada var var hisoblasangiz ham, lekin men o'z hayot tajribamda shunday xulosaga keldim. Go'zal tabiat yosh qalbgga shunday katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadiki, hatto pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqrbatlashishga ojizdir", -degan edi.

Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo'ladi. Bu haqda buyuk pedagog olimlarimiz o'zlari yashab o'tgan davrda, bolaning har tomonlama o'sishida ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matidir deb, ta'kidlab o'tganlar. Biz hozirda o'tmishdagi pedagoglarimizning dono fikrlari va ilmiy asarlariga suyanganmiz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda foydalanamiz.

O'rta asrlarda tabiat haqidagi tushunchalar Evropa mamlakatlarida deyarli rivojlanmadi- G'arbiy. Evropada fan tushkunlikka tushgan bir davrda O'rta Osiyo olimlari uni rivojlantirdilar. O'rta asrlarda O'rta Osiyo olimlari hali ekologiya fani umuman yo'q bulgan davrda tabiat, undagi muvozanat, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlarni aytganlar. Buyuk alloma, entsiklopedik olim bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy (783-847) bir risolasida shunday yozadi: "Bilginki, dunyoning-ko'zlari yoshlansa. uning boshiga g'am kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig tutmang". Demak tabiat va uning maxsuli inson uchun ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak. Erga, suvga, hayvonlarga bo'lgan munosabatlarimizni yaxshilashimiz bilangina ona tabiatimizni asrab qolishimiz mumkin. Hayvonlar na'rasiga to'la urmonlarni, parrandayu darrandalar makoni to'qayzorlarni zilo ko'llarni va o'tloqlarni qayta tiklashning imkoni bor.

Bu ishlarga faqat insongina krdir. Zero, shoir aytganidek: "Mulki jahon ichra xoqon ham uning uzi ya'ni inson, demak tabiatni ham u saqlab kola oladi".

O'rta asrlarda Urta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muxammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanining rivojlanishiga ulkan hissa qushganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Mana shunday zabardast buyuk allomalarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, o'zining "Kitob surat al - arz" asarini Abu Nasr Farobiy (870-810) "al - hajmi va al - mikdor", "Kitob almabodi al - insonia"

aerlarini Abu Rayhon Beruniy "Saydana", "Minerologiya" aerlarini Abu Ali ibn Sino, u "Kitob al - shifo", "Tadbir ul - manzil" kabi asarlari!sh yozganlar.

Hadisi sharifimizdagi tabiat, tabiatni avaylab asrash, uni ko'paytirish, parvarish qilishga oid bndlari bilan ham tanishib. uni chuqur tahlil qilinadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. G'arb pedagoglaridan, bola tarbiyasida tabiatni tuggan o'rni haqidagi qanday ilmiy asarlari va fikrlarini bilasiz?

2. "Inson tarbiya predmeti sifatida" asarining muallifi kim?

Z. Qomusiy olimlarimizda Abu Ali ibn Sino, al Farobiylarning tabiatga oid kandy asarlarini bilasiz?

4. Xadisi - sharifda tabiatni asrash, e`zozlashga doyr bndlardan mieol keltiring?

III. MAVZU: TABIAT - BOLALARNING HAR TOMONLAMA KAMOL TOPISHIDA ASOSIY OMIL SIFATIDA

Reja:

1. Bolalarning umumpsixologik pivojlanishida tabiat asosiy omil sifatida.

2. Tabiat bilan tanishtirish metodikasinnng vazifalari

3.Tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlarini rivojlantirish.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish. Ularni barkamol qilib o'stirish tugilgan kun idan boshlab amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mustakil O'zbekistonimizda olib borilayotgan ta`lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi aynan mana shunga qaratilgan YA`ni o'sib kelayotgan yosh avlod mustakil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Manna shu ustivor yo`nalishlardan kelib chiqqan holda bolalar bog'chalarida farzandlarimizga berilgan xar qanday bilim ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan g'ururlanish ruxini tarbiyalashi lozim. Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- Bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish.
- O'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish.
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, xayol, tasavvur, nutq diqqat).
- Bolalarni xissiyotini irodasini rivojlantirish.
- Tabiat in'om etgan ne'matlarni avaylab asrashga o'rgatish. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan xolda, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali – Aqliy tarbiya; - Axloqiy tarbiya; - Nafosat tarbiyasi; - Jismoniy tarbiya; - Ekologik tarbiya; Iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Yosh avlodga aqliy tarbiya berish umumiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Aqliy tarbiya berish ko'zlangan maqsad b maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak – atrofdagi hayotning eng oddiy xodisalari haqida turli tasavvurlar hosil qila olishga o'rgatib borishdan iborat. Tabiat vositasida bolalarga aqliy tarbiya berish biz yashaydigan muhitdagi o'simlik va xayvonot olami bilan tanishtirish, jonlig'jonsiz tabiat haqida tushuncha berish haqidagi, uning elementlari, tabiatda bo'ladigan hodisalar, yomg'ir, yulduzlar, oy haqida, er haqida tushunchalarini mashg'ulot vaqtida so'rab bilish mumkin. Bola tevarak'atrofdagi narsalar, ularning shakli, rangi, kattag'kichikligini ko'rib ular xaqida fikr yuritadi. Aqliy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan yana biri bolalarni tarbiyalash. Bolalarga aqliy tarbiya berishda tabiat vositalardan foydalanish ma'lum bir tizim asosida amalga oshirilishi kerak. Buning uchun eng avvalo tabiat bilan tanishtirishning eng oddiy tushunchalaridan boshlab tabiat haqidagi ilmiy dunyoqarashlar hosil qilinadi. Natijada bolalarda ko'rgazmali obrazli, ko'rgazma xarakterli tafakkur rivojlanadi. Buning ahamiyati shundaki tanishtirilgan tabiatning xar bir vositasi bola ongida fikrida tushunchasida mustaxkam iz qoldiradi.

Axloqiy tarbiya deyilganda yosh avlodni Vatanga, kishilarga muhabbat, ularga va ular mexnatiga hurmat tuyg'ulari, baynalminallik kurtaklari, kishi – kishiga do'st, tinchlik, xarakterning irodaviy xislatlari va shaxsning ijobiy axloqiy sifatlar, poklik, to'g'rilik, xullas olijanob inson uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini mujassamlashtirilgan holda tarbiyalash tushuniladi.

Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat omilidan keng foydalanish kerak. Buni amalga oshirish bir kunlik, bir oylik ish emas, bolki bu uzoq

davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, kerak bo'lsa yillab tarbiya talab qiladigan mehnatning maxsuli xisoblanadi.

Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun bog'cha uchastkalariga ekilgan ekinni parvarish qilish, gullarning har bir gulni nixolni asrash, uni parvarish qilish, gullarni tagini yumshatish, sug'orish kabi ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirish mumkin. Bolalarni bog'cha maydonchasida, tabiat burchagida, o'simlik yoki xayvonni tanishtirish jarayonini tashkil etish kerak bunda tarbiya tanishtirishni qiziqarli jonli sharoitga bog'lab bolalarning e'tiborini o'ziga rom etib tashkil etish kerak. Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilma-xil.

Yoshlarga nafosat tarbiyasini berishdan maqsad shaxsning didini, go'zallikni his etib doimo unga intilib yashash xislatini tarkib toptirishdir. Chindan xam tabiatni uning go'zal manzaralarini tog' rog'larni sevmagan undan roxatlanmagan kishi bo'lmasa kerak. Gullarning, mevalarning hidi, shakli va rangi, qushlarning sayrashi, ariqlardan suvlarning shildirab oqishi, oyoq ostidagi qorning g'ijirlashi - bularning barchasi balalarda tabiatdagi narsa va xodisalarni his qilishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va o'stirish uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yosh bolalar chiroyli, yorqin, rang, predmetlarni yaxshi ko'radilar. Go'zallik xavas, qiziqish xar bir bola ongida mavjud. Biz bola ongidagi fikridagi ana shu qiziqishni rivojlantirishimiz zarar. Bunda asosiy vosita rolini tabiat oynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat vositasida nafosat tarbiyasini istagan faslda amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mexnat tarbiyasini berish ularni mexnatsevarlik ruhida tarbiyalash mehnatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, kattalar yaratgan mexnat maxsulini e'zozlash, uning qadriga etish ruxida tarbiyalashni bolalik davridan boshlashi lozim. Bolalarning mexnat tarbiyasi burchagida ulzorda, o'simliklar va xayvonlarni parvarishlash jarayonida amalga oshiriladi. Mexnat tarbiyasi xar bir guruxning yosh xususiyatini xisobga olgan xolda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kichik guruxda mehnat tarbiyasinn berishda bolalar tarbiyachi bilan birga xonadagi o'simliklarga.suv quyadilar, akvariumdagi baliqlarga ovqat beradilar, qushlarga don tashlaydilar, boqcha hovlisidagi poliz ekiilarini yig'ib-terib olishda ishtirok etadilar. O'rta guruxda mehnat tarbiyasi bir oz murakkablashadi, boqcho maydonchasidagi o'simliklarni o'zlari parvarish qiladilar. Tabiat burchagidagi hayvonlarni o'zlari ovqatlantiradilar, parvarishlaydilar. Katta tayyorlov guruxlarda amalga oshiriladigan mehnat tarbiyasi ham bir muncha o'ziga

xosligi, murakkabligi bilan ajralib turadi. Bolalarning o'simliklarga bo'lgan munosabati, mehnat qilishlari jonli tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Inson hayotida tabiatning tutgan o'rnini qanday?
2. Tabiat bilan tanishtirishda qanday vazifalar amalga oshiriladi?
- Z. Tabiat vositasida bolani har tomonlama tarbiyalash degandl nimani tushunasiz?

IV. MAVZU: BOLALAR BOG'CHASIDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH MAZMUNI

Reja:

1. Tabiat haqidagi beriladigan bilimlar mazmunining bolalar yoshiga mos kelishi zarurligi.
2. Tabiat bilan tanishtirish printsiplari.
3. Tabiat bilan tanishtirish dasturining tuzilishi.

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilshp jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishnn vazifa kilib qoyadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko'p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o'rganish bilan shugullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz. avvalo. pedagogika fanining asoschilarini aytib o'ttan fnkrlarga asoslanamiz. Garbning ilgor pedagoglaridan Kominskiy bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va kurgazmalilikka asoslanishi kerak; - degan edi. Bolalarga tabiat orkali beriladigan bilimlar turlicha metod va usullar bilan olib boriladi va ekskursiya, sayr, ta`limiy oyinlar orqali mustahkamlanib chuqurlashtiriladi.

Dasturning tabiat bilan tanishtirish bulimiga materiallar quyidagi printsiplar asosida tanlanadi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirsh printsiplari

Bolalar yoshiga	Ko'rgazmalilik	Entsiklopedik
Moslik printsiipi	printsiipi	printsiip
Ilmiylik	Ulkashunoslik	-
printsiipi	printsiipi	

Bolalar yoshiga moe jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy aniq bo'lishi kerak. Masalan: o'simlikni yoruglikka, suvga, issikdikka bo'lgan extiyoji.

Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko'rgazma asosida berilishi shart. O'z o'lkasi tabiati haqida chuqur bilim berish. Tabiatshunoslikning barcha sohalari (botanika, zoologiya, astronomiya) hakida bilim berish.

Yuqorida aytib o'tilgan printsiplar bir-biri bilan bogliq xolla olib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik printsipigiga rioya qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tuigunadigan bo'lishi zarur.

Masalan: Erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko'm-ko'k tus oldi biz endi boqcha er maydonchasiga ekin ekishim iz mumkin.

Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo'ladilar.

Ilmiy printsiplarni bolalar yoshiga mos bo'lsagina samarali natija beradi. Bu haqda Y.A.Komenskiy shunday degan: Oddiydan - murakkabga, yaqindan- uzoqqa, tanishdan-notanishga tomon borish kerak. Bu printsiplar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bo'limida o'z aksini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosita o'zlariga yaqin bo'lgan, atroflarini o'rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga avval boqchadagi daraxtlar so'ngra o'rmondagi daraxtlar haqida bilim beramiz. Demak, biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga rioya qilishimiz zarur.

Biz bolalarga bilim berishda ularning avvalgi bilimlariga tayanamiz. Shundagina ular yangi bilimni chuqur o'zlashtirib oladilar. Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga mos bo'lsa-Y. ular ko'rgazmasiz bo'lsa, bolalar yaxshi tushunmaydilar.

Y.A.Komenskiy shunday degan: "Avval sezgilarda bo'lmagan narsa, intellektda ham buliaydi".

Shundan kelib chiqib hissiy tajribani bilish va o'rganish asosida quyidagi ko'rgazmalilik printsiplarni asoslab berdi. Ko'rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko'rib idrok etish emas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidaei hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yula bir necha sezgi organlarini ishga solish lozim. Agar o'rganilayotgan predmetni ko'rish imkoni bulmasa. ularning sur`atlari yoki modellariga murojaat qilish lozim. Demak, ko'rgazmalilik bolalarni abstrakt tushunchalarini real anglashga olib keladi.

Entsiklopedik soʻzi grekcha soʻz boʻlib, barcha fanlarni har tomonlama bilim olish, bilimlar yigindisi manosida qoʻllaniladi

Bolalar osmon jismlarini astronomiyadan, oʻzi tutilib usgan shahar, qishloq, voha, dare, togʻlarning nomlarini geografiyadan; oʻsimliklar nomlari. ularning uziga xos xususiyatlari botanikadan bilib boradilar.

Tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan - murakkabga tizimli ravishda yakindan - yaʼni oʻz oʻlkasi tabiatidan boshlab uzoq yaʼni boshqa oʻlka tabiatini tanish. oʻrganish asosida amalga oshiriladi. Oʻz oʻlkasi tabiati bilan tanishish bevositasi bolani tevarak - atrofdagi, boqchasidagi er maydonchasidagi oʻsimliklar, gullar, koʻchatlar, daryo va koʻl nomlari, togʻlar, yoʻlda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami; yaʼni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizim asosida ish tashkil etilsa, oʻzga oʻlkaning tabiati bilan tanishish engil, oson kechadi.

Mavzu yuzasidan savollar;

1. Printsip deb nimaga aytiladi?
2. Qanday printsiplarni bilasiz, ularga misol keltiring?
3. Tabiat bilan tanishtirish jarayonida kaysi printsipdan foydalaniladi?
- 4 . Oʻlkashunoslik printsipini izoxlab bering?

V. MAVZU: BOLALAR BOGʻCHASIDAGI TABIAT BILAN TANISHTIRISH DASTURI.

Maqsad: Talabalarga maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturi, uning boʻlimlari haqida bilim berish.

Reja:

1. Tabiat bilan tanishtirish dasturining mazmuni.
2. Dastur materiallarining kontsentrik printsip asosida joylashuvi.

3. Tabiat bilan tanishtirish dasgurida faslchilik printsiptidan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidap so'ng uz milliy qadriyatlarini tiklash yo'lida jamiyat hayotining har bir jabhasida sobit qadamlik bilan ish olib borayotir. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida. "Kadrlar tayyorlash millim dasturi" yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Maorif vazirligi tomonidan, bolalar boqchalarining tabiati bilan tanishtirish dasturi, Respublikamizning o'ziga xos etnik xususiyatlari, geografik jihatdan iklimi, tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Dasturda amaliyotda erishilgan yutuqlar asosida ta'lim-tarbiya haqida nazariy vazifalar berilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni har yosh boskichiga xos psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan. Dastur ilk yoshdagi ikkinchi kichik guruhdan to maktabgacha tayyorlov guruhi uchun mo'ljallangan bilim va kunikmalar hajmini o'z ichiga oladi.

Bizga ma'lumki. maktabgacha tarbiya muassasalarida turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadilar. Maktabgacha bo'lgan davrda bolalarga har bir guruxda jonli va jonsiz tabiat haqida bilim beriladi. Bu beriladigan bilim, kunikma, malakalar guruxdan guruxga o'tgan sayin chuqurlashtirilib, kengaytirilib, murakkablashib boriladi.

Dasturda tabiatshunoslik materiallari barcha guruh uchun yil fasllariga qarab taqsimlangan. Har bir mavsumda jonli va jonsiz tabiatdagi hamda kishilar faoliyatidagi eng aniq xarakterli hodisalar ko'rsatib o'tilgan. Materialarning bunday joylashishi tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish, uni taxlil qilish imkonini beradi.

Tabiat bilan tanishtirish dasturi respublikaning uziga xos tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida qo'llaniladigan "Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi" davlat hujjati sanaladi. Har bir bogcha mudirasi, uslubiyotchisi, tarbiyachisi shu hujjat materiallarini to'liq amalga oshirishlari shart. Dasturniig tabiat bilan tanishtirish bo'limi. Hamma bo'limlar bilan uzviy bo'lingan. Tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni xosil qilish so'z yordamisiz bo'lishi mumkin emas. SH uning uchun ham ona tilini chuqur o'rganish undan foydalana olish tabiatni kuzatish va o'rganish bilan chambarchas bogliq. Bola tabiatini kuzatish davomida olgan bilimlarini uzlari tasviriy faoliyatlarida aks

etradilar. Tabiatni kuzatish orqali sanashni, miqdor, o'zgarishlarini o'rganib boradilar (daraxt baland, buta past, daraxt tanasi 1 ta, buta tanasi ko'p). Jismoniy mehnat bolalarni jismonan baquvvat, soglom o'sishlari uchun yordam beradi. Bundan tashqari tabiatga oid bo'lgan harakatli ^oyinlar ham bolani jismonan barkamol bo'lishiga yordam beradi. Bu misollarning barchasi dapurda o'z aksini topgan. Dasturga material tanlash tabiat bilan tanishtirishdagi barcha printsiplarga rioya qilingan holda amalag oshirilgan.

Yuqorida bayon etilganidek, bolalar boqchasida turli yoshdagi bolalar tarbiya topadlar. Bolalarning o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olingan holda dastur quyidagicha tuzilgan, ya'ni, bolalarboqcha muassasalarida bo'lgan davrlarida bitta mavzu bilan bir necha marta tanishadilar. Lekin har safar chuqurroq, kengaytirilgan holda tanishadilar.

Masalan: Kichik guruxda suv hakida tushuncha berilganda suv bilan yuviriladi, suvni ichadilar, suv sovuq, iliq bo'ladi. suv okadi kabi o'rgatiladi. O'rta guruxda suv tiniq, ayrim predmetlar suvda chuxadi, issiq kunda suv tez, sovuq kunda sekin quriydi, katta tayyorlov guruxlarida suvning tabiatda aylanib yurishi, o'simlik, inson hayotida uning o'rne, suvdan elektr energiyasi olishda foydalanish mumkin kabi tushunchalar oddiydan - murakkabga qoidasi asosida tushuntirilib boriladi. Demak, har bir guruxda tabiatga oid bilimlar har yili murakkablashib boradi.

Dastur faslchilik printsinlari asosida tuzilgan. Materiallarning bunday joylashtirilishi tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishga yordam beradi.. Dasturda o'rta guruhdan boshlab har bir faslda bolalarga jonli va jonsiz tabiatidagi, o'simliklar hayotidagi, hayvonot olamidagi uzgarishlar va ular haqida bolalar olishlari lozim bo'lgan bilimlar berilishi hisobga olingan.

Biror bir faslda o'simliklar hayotidagi o'zgarNshlar, ob-havoning o'zgarishini kuzatish, hayvonot olamidagi o'zgarishlarni, kishilarning shu mavsumdagi mehnatlari bolalarga yaqqol ko'rinadi. Shu fasldagi barcha tabiat haqidagi, unda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida tu lik, tasavvurlar shakllanadi. Bundan tashqari dasturda tabiat haqidagi tasavvurlrni shakllantirish kvartallarga bo'lib berilgan.

Bolalarga beriladigan bilimlarni kvartallarga bo'lib joylashtirishda ham yuqorida kurib o'tilgan prntsiplarga rioya qilinadi,

Har bir guruxda yil oxirida bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilimlar ko'rsatiladi. Dastur materiallarini joylashtirishda ketma-ketlik, tizimlilikka amal qilingan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Dastur nima?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturini bo'limlarini aytib bering?
3. Dasturda faslchilik printsiptining qo'llanishi deganda nimani tushunasiz?
4. Dastur mazmuni guruxdan guruhga karab murakkablashib borishiga misol keltiring.

VI. MAVZU: BOLALAR BOG'CHASINING TABIAT BURCHAGI

Maqsad: Bolalar bog'chasining umumiy tabiat burchagini har bir guruxda jonli tabiat burchagini tashkil etish va unda yashovchilarni parvarish qilish yul-yo'rikdarini o'rgatish.

Reja:

1. Tabiat burchagining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.
2. Tabiat burchagiga-qoyiladigan talablar.
3. Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil etish.

Bolalar bogchasida jonli tabiat burchagining bo'lishi bolalarni tabiat bilan ko'rgazmali va amaliy tanishtirishning zarur sharoiglardan biridir. Bolalarning ekskursiya yoki uy sharoitidagi kuzatishlari qisqa muddatlidir. Tabiat burchagida esa, bolalar yil boyi xayvon va o'simliklar oldiga kelishlari va o'simliklarni tarbiyachining topshirigi asosida uzoq muddat kuzatishlar mumkin. Bu esa bolalar uchun laboratoriya vazifasini o'taydi. Tabiat burchagining ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalar o'simliklarning nomlari, qismlari, rivojlanish jarayonlarini kuzatadilar. Ularning issiqlikka, yorug'likka, suvga bo'lgan talab jarayonlarini o'rganadilar. O'simlikni parvarish qilish uchun sarflanadigan mehnat turi bilan tanishadilar.

Tabiat burchagining ta'limiy ahamiyatini yana kuyidagicha izoxdash mumkin: bolalar hayvonot olami turlari, ko'payishi, tana qismlari, harakatlari, oziqlanishi bilan ham tanishadilar.

Tabiat burchagi uchun quyiladigan talablar:

1. O'simlik yoki hayvon biron bir anik, tur uchun xos bo'lishi kerak.
2. Tabiat burchagida yashovchilar "beor" ko'p mehnat talab qilmaydigan, ovqat tanlamaydigan, bolalar yoshiga moe bulishi kerak.
- 3.Tabiat burchagida yashovchilar yorqin, jozibador, bolalar diqqatini uziga jalb qilib tura oladigan bulishi zarur.
- 4.Bir turdagi o'simlik va hayvonlarni bir necha xili bulishi kerak.
- 5.Tabiat burchagida yashovchilar tamoman xavfsiz va bolalar sog'ligiga hech qanday zarar etkazmasligi shart.
- 6.Tabiat burchagida yashovchi o'simliklar va hayvonlar soni cheklangan va biologik xususiyatlari xisobga olingan holda joylashtirilishi kerak.

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagida saqlash, joylashtirishda birinchi navbatda ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlari nazarda tutilishiga e'tibor berish kerak.

Masalan: Ba`zi bir xona o'simliklari (chiroqgul, kaktus) quyosh nurlarini ko'proq talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug joyga qoyish lozim. Boshqalar (uzumbapn, gunafsha) tik tushi b turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Tabiat burchagi kuzni quvontirishi, xonani bezashi lozim. Nihoyat ob`ektlarni shunday joylashtirish lozimki, bolalar ularning yoniga bemalol kela olishlari tabiat burchagini kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari kerak. Agar imkon bo'lsa, har bir guruh bolalari keng foydalana oladigan umumiy jonli burchak tashkil etilsa, yanada ham yaxshi bo'ladi. bunda istagap guruh bolalar ekskursiya qilib kelib ko'radi, tanishadi. o'rganadi Bunday jondi tabiat burchagida tulki kuyon, tovuq, echki kabilarni parvarishlash mumkin Bundan tashkarn tabiat burchagida hayvonlarni boqishning uziga xos hayotiy va biologik tomonlari bulib, uni har bir tarbiyachi yaxshi bilishi zarur.

Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil etish, ya`ni kichik guruxda: o'simliklar dunyosi, Xitoy atir guli, fuksiya, doymiy gullovchi begoniY.

Baliqlar: Tilla baliq.

Qushlar: Sa`va, snegir.

Hayvonot quyon, olmaxon, dengiz chuchkasi.

O`rta guruh: o`simliklar dunyosi, begoniya reke, asparagus, xushboy yorongul, aloe yoki agava.

Baliqdar: Tilla baliq turlaridan vuallexvost, teleskop. Qup1lar: Snegir jufti bilan.

Hayvonot olami: Kichik guruxda tavsiya etilgan hayvonlar saqlanadi.

Katta guruh: o`simliklar dunyosi: Tradeskantsiyaning 2-3 turi, plyush, aloe, zigakaktus, amaralis.

Baliqlar: Guppi, me`yasits skalyariy.

Kushlar: Taram - taram to`tiqush, quyi guruhdagi qushlarni saqlash mumkin.

Hayvonot olami: Tipratikan, osmaxon, toshbaqani saqdash mumkin.

Tayyorlov guruh: o`simliklar guruhi: amaralis, slivaya, krinum.

Baliqlar: 2-3 tur baliq bo`lishi kerak, quyi guruhdagi baliqlar ham tavsiya etiladi

Qushlar va mayda sut emizuvchilardan tabiat burchagiga tavsiya etilganlar istalgancha saklash mumkin.

Bolalar bogchasida tabiat burchagida yashovchilarning barchaskni doimiy va vaqtincha yashovchilarga ajratish mumkin.

Doimiy yashovchilar yil davomida xona o`simliklari, baliqlar va shu kabilar yashasalar, vaqtincha yashovchilar esa guruhga kiska muddatga olib kiriladi. Bular maxalliy o`lka o`simlik va hayvonlari bo`lib, ularning hayot faoliyatlari u yoki bu mavsumda alohida qiziqarli va yorqin bo`ladi. Bahorda daetlabki gullar, kuzda qiyos gullaydigan gulxonadagi dekorativ o`simliklar, xashoratlar va shu kabilar. Demak, xonaga tabiat burchagiga ob`ekt tanlashda yuqoridagi talablarga rioya qilgan holda, o`lkani tabiiy sharoitini hisobga olish zarur.

Har bir guruh uchun ob`ekt tanlashda guruh bolalarining yosh xususiyatlarini, bilim darajasini, bogchani tabiiy sharoitini hisobga olish lozim, hamda o`simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning predmetlarni idrok etish xususiyatlarini e`tiborga olish muhimdir. Shuningdek ta`limiy masalalar nazarda tutiladi.

2-kichik guruxdan bolalar o'simliklarni parvarish qilishga jalb kilinadi. Hayvonlarni bolalar kuzatar ekanlar, ular hayvonlarning chiqaradigan tovushlari, xatti-harakatlari, gavda qismlarini bilib oladilar.

O'rta guruxda bolalar predmetlarning xususiyatlari va sifatlarining xilma - xilligi, rangi, kattaligi va shu kabilarni ko'ra olish malakalarini hosil qilgan bo'ladilar. Bolalar ko'rish, predmetlarni o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ajratish, umumlashtirishga o'rganadilar. O'simlik va hayvonlar haqidagi bilimlar murakkablashadi. O'simlik hayoti uchun zarur bo'lgan sharoitlar bilan tanishadilar.

Katta tayyorlov guruhda, bolalarning predmetlarni kuzatish, solishtirish, klassifikatsiyalash ko'nikmalari davom ettiriladi. Bolalarda turlicha o'simlik va hayvonlarning rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan sharoitlarni, ko'payish xususiyatlari haqidagi bilimlarni kengaytirib boradilar. Bundan tashqari ular tabiat olamidagi muhim bogliqliklar-o'simliklarni kompleks sharoitlarga, hayvonlarni tashqi tuzilishi, hayot tarzini yashash muhitga bogliqligi haqidagi elementar bilimlar shakllantiriladi. Bolalar turli mavsumlarda o'simlik va hayvonlar hayotida, ularni o'sishi va rivojlanishining asosiy davrlarini biladilar, tanishadilar.

Mavzu yuzasidan savol topshiriqlar.

- 1.Tabiat burchagining ta'limiy ahamiyati deganda ni mani tushunasiz?
- 2.Tabiat burchagining tarbiyaviy tomoni nimalardan iborat?
- 3.Tabiat burchagiga qanday talablar qoyilgan?
- 4.Turli guruhlarda tabiat burchagi qanday tashkil etiladi?

VII. MAVZU: BOLALAR BOG'CHASINING ER MAYDONCHASI.

Maqsad: Bolalar bogchasining er maydonchasini tashkil etish, rejalashtirish. Yil faellarda gulzorni tashkil etish haknda talabalarga bilim berish.

Reja:

- I. Ep maydonchasining ta'limiy tarbiyaviy ahamiyati.

2. Bolalar bogchasining ekinzor va gulzorlari.

3. Maydonchada hayvonlarni saqlash.

Bolalar bogchasida er maydonchasi bo'lib, bolalar kun vaqtlarink o'sha sda utkazadilar. Mandoncha - oyinlar, sayrlar, mashg'ulotlar o'tkaziladigan butun yil danomida o'simlik va hayvonlarni kuzatadigan joydir. Maydonchada daraxtlar, butalar, ekinzor, gulxona, mevali daraxtlarning bulishi katta ta'limiy va tarbiyaviy: ahamiyatiga ega. Bolalar tarbiyachi bilan birga o'simliklarni ustiradilar, ularni parvarish qiladilar, o'sishi va rivojlanishn haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar. Bolalarga o'simliklarni pavarish qilish jarayonida, tuproqqa ishlov berishda zarur buladigan oddiy asboblardan foydalanish ko'nikmasi hosil bo'ladi hamda tabiatga unda yashovchilarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bulish kabi xislatlar tarbiyalanadi. Maydonchani chiroyli, nafosatli bszatilish bolalarda badiiy va go'zallikni xis qilish, vataniarvarlik kabi nozik xislatlarni tarbiyalaydi.

Bolalarda o'z o'lkasini sevishi, o'z o'lkasining tabiatini bilishi katta ahamiyatga ega. shu maqsadda maydonchaga ekiladigan daraxtlar usimliklar mana shu o'lka tabiatiga, iqlimga mos bulishi zarur.

Ekinzorni tashkil etishda dastur mazmunidan kelib chiqhan holda bir guruh uchun poliz ekinlari tanlanadi.

Kichik guruh uchun uruglari i pri k xomligicha iste'mol qilish mumkin bo'lgan: sabzi, rediska tavsiya etiladi.

O'rta guruxda ham xuddi shular ekiladi. Biroq; imkoni borich,: ikki xil navi ya`ni kizil va ok. rediska ekiladi- Maksud bolalar ularni solstirib uxshash va farkli tomonlarini anglashlaoi lozim

Katta guruxda bolalar uchun tavsiya etilgan barcha sabzavot o'simliklari ekiladi.

Gulzorni tashkil etishda, bogchanning tabiiy sharoitini hisobga olgan holda, erta bahordan to kech kuzgacha 1ullaydigan usimliklar tanlanadi.

Masalan: lola, nartsiss (chuchmoma), kanalakgul, qo'qongul kabi gullar tanlanib, ularni markaziga baland buyli, chetlariga past buyli gullar tanlanadi.

Er maydonchasida bahor, yoz oylarida jonli tabiat burchagi tashkil etiladi.

Bogchaniing tabiiy sharoitini hisobga olgan holda, jonli tabiat burchagida quyonlarni, tovuqlarni, o'rdaklarni boqib parvarish qilish mumkin.

Bu bolalar joiivorlarni parvarish qilish, kunikma masalalarini tarbiyalash, ularga nisbatan hamgo'rlik munosabatlarini chuqurroq tarbiyalashga yordam beradi.

Er maydonchasida har bir yosh guruh uchun uyin va jismoniy tarbiya maydonchalari, tabiiy material bilan uynash uchun kum solingan yashiklar kichikroq xovuz bo'lishi lozim. Jonivorlar quyon va tovuqlar boqish uchun joyi ajratiladi.

Kichik guruh bolalari uchun ekinzor maydoni har bir bolaga 1 kvm hisobidan tashkil qilinadi. O'rta guruh bolalari uchun norma 1,5 kvm gacha, katta tayyorlov guruh, bolalari uchun 1,5-2 kvm gacha oshiriladi. Ekinzor atrofi past boyli usimliklar bilan o'raladi. Atrofi o'ralgan ekinzor chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi bilan birga, guruxlarni bir - biridan tabiiy ajratib turadi. Ekinzor uchun tanlangan urug'lar yuqori iavli axshi ekish xususiyatiga ega bulishi kerak. Ekilgan urug'larning asosiy sifat ko'rsatkichi uning unib chiqashidir. Nihollar paydo bo'lishini tezlashtirish uchun urug'lar namlanadi va undiriladi.

Gul o'simliklarining ekishning eng ko'p tarqalgan shakli klumba, rabotka va gazonlardir. Gulzorni bezashda manzarali o'simliklarni go'gri tanlash muhimdir. O'simliklarning yorug va nanga bo'lgan galabini e'tiborga olish kerak. O'simliklarni tanlaganda klumbada erta bahordan to kech kuzgacha gul ochilib turishi nazarda tutilishi lozim. Erta bahorda ochilgan gulga ega bo'lish uchun kuzda erga piyozli o'simliklar - lola, chuchmoma ekiladi yoki iyul oyida kapalakgul, dastagullar zkilib, erta bahorda ular doimiy joylariga x.uchirib o'tkaziladi. Gulzorni bezashda chiroyli gullarni butazor va o'tsimon manzarali o'simliklardan foydalanish mumkin Ochiq erda yashash davomiyligiga ko'ra manzarali usimliklar ko'p yillik, 2 yillik, 1 yilliklarga bo'linadi. Ko'p yillik usimliklar guruhiga er ustidagi qismi kishda xalok usimliklar kiradi. Uning hayoti tuproq ostidagi organlarida; piyoz, tugunak ildizpoya, ildizida saqlanadi. Qishlovchi usimliklar bahorda tez o'sadi. Erta bahorda va kuzda gullaydi. Ko'p yillik o'simliklarga alohida e'tibor berish lozim Ikki yillik gulli o'simliklarga ko'iincha urug eepilgandan so'ng 2 yiliga gullaydigan o'simliklar kiritiladi. Bu usimliklar yozning brinchi yarmida ochiladi.

Gulxonada bir vegativ davrda foydalaniladigan ngullarni bir yillik yoki yozgi o'simliklar deyiladi. Yozgi usimliklar ekilgan yili ochiladi, urug beriladi va xalok bo'ladi. Ularning guli chiroyli bo'lib, yozning ikkinchi yarmida qiygos bo'lib ochiladi-

Maydoncha bogcha bolalari uchun yil mavsumi va fasllarning o'zgarishini kuzatadigan eng qulay joydir. Tarbiyachi bolalarni maydonchaga olib chiqib, tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, uning sabablari, qishlab qoluvchi va o'chib ketuvchi qushlar bilan tanishtiradi. Bir so'z bilan aytganda, bog'cha maydonchasi bolalarning har iomonlama rivojlanishida jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishida, o'z ona -Vatanini sevishta uni muhofaza qilish. o'simlik va hayvonlarni asrash va ko'paytirishda tachlim - tarbiya aladgan ilk maskan hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda er maydonchasining .anday xam pyati bor?
2. Nima sababdan fasllarga karab gulzor va ekinzor tashki, etiladi?
3. Mehnat asboblariga qanday talablar qoyiladi?

VII. MAVZU: BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI

Maqsad: Talabalarga tabiat bilan tanishtirish metod va usullari haqida bilim berish, kuzatish - tabiat bilan tanishtirishning asosiy usuli ekanligi haqida bilim berish.

Reja:

1. Tabiat bilan tanishtirish uslub va usullariga umumiy tavsif.
2. Beriladigan bilim mazmuniga uslub va usullarni bog'liqligi.
3. Kuzatish - tabiat bilan tanishtirishning asosiy uslubi.

Pedagogikada metod deb, pedagog va bolalarning birgalikdagi faoliyatlari aushuniladi. Bunda pedagog bolalarga bilim beradi bolalar esa bilim, ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Tabiat bilan tanishtirishda quyidagi metoddardag' foydalaniladi:

Ko'rgazmali uslub: (Kuzatish)

Amaliy uslub


Og'zaki uslub

Bolalarga bilim berishda bilimlar mazmunga ko'ra uslub va usullar tanlanadi.

Masalan: Biror bir kush bilan tanishtirishda etakchi metod kuzatish xisoblanadi. Tabiat hodisalari bilan tanishtirishda esa etakchi metod ogzaki uslub hisoblanadi.

Kuzatish atrof - olam predmetlari va hodisalarini maqsadgoy muvofiq, rejali idrok etishdir.

Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tunguntirishda bolaning tajribasi, bilim, malakalari muxim ahamiyatga ega.



Predmet va hodisalarning xususiyati va sifatleri haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan kiska muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar kislarning shakli, rangi katta-kichiklik, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, satxining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tani'shganda esa harakat xakteri ular chiqadigan tovushlarni ham o'rganadigan va x.k. O'simlik va hayvonlarning usishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning yoritalishi uchun kuzatashning ancha murakkabroq turi uzok, muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga ob'ektiing kuzatilayotgan holatini ilgariyasi bilan qiyoslashga to'g'ri keladi. Kuzatish predmetining ayrim belgisiga ko'ra uning holatini aniqlash, ayrim belgilarga ko'ra yaxlit manzarani taklash, maqsadida ham tashkil etilishi mumkin. Kuzatashning yana bir turi solishtirib kuzatishdir. Kuzatashning bu turi o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi Solishtirma kuzatishda bir turdagi o'simlik yoki hayvonlarni kuzatiladi. YA'ni, masalan, pishgan meva bilan xom mevani, yoruglikda o'sgan usimlik bilan soyada qrrong'ulikda o'sgan o'simliklarni uzaro solishtirib kuzatish.

Tarqatma materiallardan foydalanib, kuzatishlar o'rta guruxdan boshlab tashkil etiladi. Bu kuzatish bitta ob'ektini kuzatishdan murakkabdir. Bu o'rinda tarbiyachidan o'z dikdatini taqsimlash, barcha bolalar harakatini uyushtara olishi talab etiladi, bolalar esa tarbiyachining barcha topshiriqlari kursatmalariga aniq rioya kilishlari, tengdbshlarni tinglashlari va quloq solishlari, boshqalarning kuzatishlari bilan taqqoslashlari va qiyoslashlari kerak. Kuzatishlarni tashkil etishning katta ahamiyati bor. Barcha bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanishida mashqlarni uquv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bolalarda aniq tasavvurlar shakllanadi. Tarqatma material sifatida o'simliklar va ularning qismlaridan foydalanish mumkin.

Kuzatishda ishtirok etuvchi har bir bola material to'plamini qo'lga oladi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarga savollar beradi. Olingan tasavvurlar qiyoslanadi. Tarbiyachi bolalarni xulosa chiqarishlariga ko'maklashadi. Kuzatishlarda tarqatma materiallardan foydalanish bolalarning yuqori faoliyatini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali metoddar guruhiga bolalar bilan birga rasmlarni kurish diapozitiv va kinofilmlarni namoyish qilish ham kiradi.

Bu metodlar foydalanish xilma-xil vazifalarni xal qilishga, tasavvurlarni aniklash va bilimlarini tazimlashtirish, umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.

Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq kurish, diqqatni uzoq muddat shu predmetga qaratash imkonini beradi, buni esa qupyncha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi va o'zgaruvchanligi tufayli amalga oshirilishining imkoni bulmaydi. Bundan tashqari kup hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'limiy, voqeabandb predmetli, shuningdek badiiy rasmlardan foydalaniladi. Ta'limiy, vokeaband predmetli rasmlar bolalarni o'qitishda ko'rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir. Rasmlardan foydalanishdan maksad bolalarda tabiatga nisbatan estetik munosabatni tarkib toptirishdir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishida kitob jadvalidan ham foydalaniladi Qoyilgan maqsadlarga ko'ra kitoblarga illyustratsiyalarni ko'rish turlicha o'tkaziladi, ya'ni illyustratsiyalarni kurishdan oldin, o'qish davomida va ximoya sungida namoyish etish mumkin.

Bolalar bogchasida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda diapozitiv diafilm, kinofilm, telefilmlardan foydalaniladi. O'quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: usimlik, hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi - kattalarning mehnati haqidagi tasavvurini shakllantiradi, qisqa muddat ichida uzoq vaqt bo'lib o'tgan hodisalarni ko'rsatish imkonini yaratadi

Filmni ko'rishga bolalarni oldindan tayyorlash lozim. Buning uchun film mazmuniga bog'liq suhbatlar, ekskursiyalar o'tkaziladi, kitoblarni o'kish tashkil etiladi. Bevosita filmlarni ko'rsatishdan oldin bolalar yo'llanma beruvchi suhbat o'tkazilib unda bolalarga filmini ko'rayotganlarida e'tibor berishlari lozim bo'lgan topshiriqlar beriladi Film ko'rib bo'lganidan keyin muxim joylarini ajratib kursatishga yo'llangan suhbat utkaziladi. Maktabgacha kichik yoshdagilar uchun ovozsiz filmdan foydalanish ma'qul. Ularning mazmunini tarbiyachi aytib turadi. Film sungida kichkintoylar bilan maxsus suhbat o'tkazish tavsiya etiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- 1.Uslub nima?
- 2.Ko'rgazmali uslubga tasnif bering?
- 3.Ko'rgazmali uslub turlari?

VIII. MAVZU: TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA OG'ZAKI USLUB

Maksad: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi hikoyasi, suhbat, badiiyadabiyotni ahamiyati haqida talabalarga bilim berish, talabalarni uzbek yozuvchilarining bolalar yoshiga moe tabiatga oid, ilmiy xikoyalardan foydalanishga o'rgatish.

Reja:

- 1 .Tabiatga oid hikoyalar. Ularning ahamiyati.
- 2.Suhbat, uning turlari.
- 3.Turli guruxdarda badiiy adabiyotlardan foydalanish.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishlardan. suhbatdan foydalaniladi. Og'zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnep jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi. to'ldiriladi, umumlashtiriladi. hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, ogzaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkoini beradi.

OG'ZAKI USLUB VA UNING TURLARI		
Tarbiyachining hikoyalari ularga quyilgan talablar	Suhbat, uning turlari	Badiiy adabiyot un-ga qoyilgan talab

Ilmiyligi, yoshiga mos noslikka jonliligi	bolalar tabiatshu-	Kirish Yakuniy	1.Tarbiyaviyligi 2.Hissiyotliligi 3.Jonliligi- obraz-liligi.
---	-----------------------	-----------------------	--

Og'zaki metodlardan foydalanish bir qancha vazifalarni xal etadi. Tabiatga oid hikoyaning qimmat shu bilan anikdanadiki, u ma`lum ta`limiy vazifaeini hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi va ma`lum yoshdagi guruh bolalariga mo`ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o`qishga nisbatan afzalligi mana shundandir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutkini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi ogzaki tasnif asosida etarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi himoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bogliqligi hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangiliklarni o`zining avvalgi bilim i bilan qiyoslab kurishi lozim.

Bularning barisini tarbiyachi tabiat haqidagi hikoyasiga bo`lgan talablarni belgilaydi. Tilni jonliligi, obrazliligi, aniqligi -tarbiyachining hikoyasiga qoyiladigan mutloq talabdir.

Hikoya uchun tarbiyachi xilma xil material: tabiatga oid shaxeiy kuzatishlari, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar va hikoyalar ilmiy materiallardan foydalaniladi.

Suhbat didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda: kirish suhbat va yakuniy suhbatga bulinadi

Kirish suhbat tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyadan oldin qo`llaydi. Maqsad bo`lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o`rtasida aloqa o`rnatish maqsadida bolalarni bilimini aniqlashdir

Yakuniy suhbat bilib olingan dalillarni bir tizimga solish va aniqlashtirishga, mustahkamlashga yo`naladi. Suhbatning samarali bo`lishi bolalarni oldindan qanday tayyorlanganligiga bog`liq. Suxbat - bu ular bilan o`tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, oyinlar, tabiatshunoslik, kitoblarini o`qish, hikoyalar orqali tasavvurlar hosil qilish vazifagi turali. Tarbiyachi doimo suhbatni ta`limiy maqsadini aniq tasavvur qilishi kerak. Suhbat hodisa, dalillarni taxlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalarya o`rtasida muhim aloka va munosabatlarni ta`kidlashdan boshlanadi Bunday tahlil

umumlashtirishga utishni ta`minlaydi, tarqoq dalillarni tizimga soladi. Suhbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida o`rta, katta, tayyorlov guruhlarida qo`llaniladi.

Bolalar adabiyotida tabiat turlari badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. O`z mazmuniga kura ilmiy bo`lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda san`atning bir turidir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiat haqidagi tabiat kitobidan pedagog birinchi navbatda tarbiyaviy maqsadlarda foydalanadi. U san`atning turi sifatida faqat bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta`sir etadi. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni kuzatuvchanlikni bilimga bo`lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi, U bolalar oldiga yangi savollarni quyadi. Bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan o`rashga majbur qiladi. Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy vosita sanaladi.

Demak, bolalarni yuksak e`tiqodli ma`naviy barkamol, ajoyib fazilatli, xushfe`l, mehnatkash. samimiy kishilar bo`lib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o`rni ham kattadir. Badiiy adabiyotda berilgan barcha voqea hodisalar hayotiy, jonli qilib berilishi lozim. Shundagina bola shu asar qahramonlariga ishonadi. Bolalar bog`chasi tarbiyachisi esa o`sha asarlar orqali tarbiya maqsadlariga muvaffaq bo`lishlari mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar

- 1.Og`zaki uslublarning qanday turlari bor, ularni izohlab bering.
- 2.Tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning urni kanday?

X. MAVZU: TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA

AMALIY METOD

Maqsad: Talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat ilan tanishtirishda tabiatga oid oyinlar, mehnat, oddiy tajribalar o'tkazish uslubiyoti bilan tanishtirish.

Reja

- 1.Tabiatdagi mehnatning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati.
- 2.Tabiatga oid uyinlar. Ularning ta`limiy tarbiyaviy ahamiyati.
- 3.Oddiy tajribalar.

Amaliy uslub		
Tabiatdagi mehnat	Oyin	Oddiy tajribalar
Tabiat burchagida.	1. Predmetli	
Er maydonchasida	2.Stol-bosma.	
Navbatchilik	3.Didaktik	
	4. Harakatli	
	5. Ijodiy oyin	

Bolalar tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan extiyotkorlik, gamho'rlik munosabatlari shakllantiradi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan ma`suliyatni xis etib yondoshishni tarbiyalaydi. Bolalar o'simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar. uning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan ma`suliyatni tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarinn egallab olgan bo'lishlari o'z mehnatlarining ahamiyatlarini tushunishlari lozim. Mehnat jarayonida bolalar usimliklar holati ularning yoruglikka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo'lgan ehtiyojlarini qondirishiga bog'liq ekanligining anglab oladilar. Bolalar muhitning o'zgarishi qonuniy tarzda usimliklar holatini o'zgartirishni bilib oladilar. Bu aloqa va o'zaro

munosabatlarning egallab olinishi bolaning mehnatga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir etadi, mehnat ancha ongli va maqsadga yo'llangan holda olib boriladi. Bolalarda mehnatga barqaror qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o'stirishning usullaridan biridir. Bolaning tabiatdagi mehnati yakka topshiriq shaklida va kollektiv mehnat tarzida tashkil etiladi.

Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda turli uyinlardan keng foydalaniladi. Bu uyilarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradi, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'limiy, harakatli, ijodiy uyinlardan foydalaniladi.

Ta'limiy uyinlarda bolalar uzlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simlik haqida mavjud bo'lgan bilimlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Predmetli uyinlar - barglar, uruglar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan uynaladigan "ajoyib qopcha", "mevalar va ildizlar" va hokozolar. "Stol bosma" - uyinlari - "Zoologiya lotosi", "Botanika lotosi", "Barglarni terib ol" va hokozolar. Harakatli uyinlar tabiatshunoslik harakteridagi harakatli uyinlar, hayvonlarning harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bogliq bulib, ba'zilarida jonsiz tabiat hodisalari aks ettiriladi. Bular "Ona tovuq va jo'jalar", "Mushuk va sichqonlar", "Quyosh va yomgir". "Bo'ri va quyonlar" va hokozolar. Ijodiy uyinlarda bolalar mashg'ulot ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olgan taassurotlarini aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar, bunda ularga mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi.

Bolalar predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa hamda munosabatlarning sabablarini aniqlashlari uchun oddiy tajribalardan foydalaniladi. Tajriba maxsus tashkil etilgan sharoitda o'tkaziladigan kuzatishdir.

Tajribalardan uyin, mehnat yoki maxsus mashg'ulotlar jarayonida paydo bulgan bilim vazifalarni hal qilish usuli sifatida foydalaniladi.

Tajriba shartining muhokamasi tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadi. Tajribaning hamma shartlari tenglashtirilishi va faqat ulardan bittasi tajribaning natijasiga ta'sir etadigani alohida ajratilishi, bolalarga kursatilish hamda ular tomonidan tushunilishi lozim. Tajriba uzok, muddatli qiyoslanadigan yoki qisqa muddatli kuzatish tarzida o'tkazilishi mumkin. Uzok, muddatli kiyoslanadigan kuzatishda natijalar kechiktirilganligi tufayli tajribaning ayrim alohida xarakterli bosqichlarini rasmiy jadvallarda qayt qilish lozim.

Tajribalarni tashkil etish jarayonida tirik ob`ektlarni xalok bo'lishiga olib kelmaslik, ularning hayotiy muhim ko'rinishlarini buzmaslik kerak. Shuning uchun ham sezilarli uzgarishlar paydo bulishi bilanoq sharoitni darhol o'zgartirish kerak.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Amaliy uslubni tavsiflab bering?
2. Tabiatga oid uyinlarni izoxlab bering?
3. Oddiy tajribaga misol keltiring?

XI. MAVZU: TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING ISH SHAKLLARI

Maqsad: Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari, mashg'ulot turlari, ularni utkazish uslubiyoti haqida talabalarga bilim berish.

Reja:

1. Turli yosh guruhlarda tabiat bilan tanishtirish ish gizmida mashg'ulotlarni urni va ahamiyati.
2. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarining turi

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarga beriladigan bilimlar xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyada, kundalik hayotda amalga oshiriladi.

Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida beriladigan bilimlar bolalarning imkoniyatlari hamda urab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil rivojlantirish imkonini beradi. Mashg'ulotlarni ta'limiy ahamiyati bu bolalarga mashg'ulotlarda berilishi yoki aniqlanishi hamda umumlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hajmi, bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi, nutqini ustiruvchi, qiziqishlarini o'stiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bo'lmog'i lozim. Tarbiyaviy ahamiyati esa bolalarda kattalarga hurmat, Vatasha, o'z o'lkasi tabiatiga mexr - muhabbat tabiatni avaylab - asrash. tabiat bergan ne'matlardan o'z o'rnida unumli foydalanish kabi hislatlar tarbiyalanadi.

Mashg'ulot uning turlari

Yangi bilim beruvchi	Bilimlarni aniqlovchi	Bilimlarni mustahkamlovchi	Noa`anaviy mashg'ulot
----------------------	-----------------------	----------------------------	-----------------------

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish manpulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda atrof muxit tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida o'tadigan mashgulotlarda guruxlarning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq oddiy ilmiy bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma`lum tizim hamda izchillikda ustiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, oyin mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari kuyib boriladi. Mashgulotlar ularni anikdash, tizimga solish imkonini beradi. Bolalarni mashgulotlarda oqitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Uslub mashgulotning turiga, uning maqsadiga ko'ra aniklanadi. Ayrim mashgulotlarda boshlangich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rsatish, badiiy asarlarni uqish, diafilm, kinofilmlarni kursatishdan foydalanadi. Boshqa mashgulotlarda esa bilimlar aniklanadi, kengaytiriladi, chukurlashtiriladi. Yuqorida keltirilgan usullardan tashkari mazkur mashgulotda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Mashgulotning yana bir muhim vazifasi - bolalar bilimni umumlashtirish tizimga solish.

Mashgulotlar barcha yosh guruxlarda kichik va urta guruxda, oyda ikki marta kapa, tayyorlov guruxlarida haftada bir marta o'tkaziladi.

Mashgulotga tayyorlanish hamda-uni, o'tkazishda mashgulotning tuzilishi uslubini tugri tanlash ta`limiyv vazifalar xarakteri, tabiiy ob`ektlarning xususiyatlari va bolalarning yoshiga boglikdir. Masalan yovvoyi hayvon haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilm ko'rsatish hayvonlar. usimliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma`qul. Kichik yoshdagi bolalarning mashgulotlarida kuzatish uyin uslub idan foydalanib amalga oshiriladi. Ogzaki' uslubdan asosan maktabgacha katta yoshdagi bolalar

bilan buladigan mapnulotlarda foydalaniladi. Tanlangan uslub dastur vazifasining to'lik, bajarilishinn va bolalarning faol aqliy faoliyatlarini ta`minlashi lozim Mannu lot utkazishga tayyorlanar ekan tarbiyachi ishlash uchun qanday kurgazmali kurollar tanlashni rasmlar, gerbariyalar, tabiat kalendari va hokazolar.

Qanday usimlik yosh hayvonni parvarish kilish, ekiladigan ekinning nimaga kerak bo'lishini uylab kuradi. Shundan keyingina u mashgulotning borishi ustida fikr yuritadi.

Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qrbiliyatini oshirish ularning tabiat bilan tanishtirishdagi mustaqilligini fikr doirasini oshirishda va uta faol bo'lishini ta'minlaydi. Bunday qrbiliyat bolalarga tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo'lish sabablarini bilishga imkon beradi Bolalarda izlanuvchanlik qrbiliyatini hosil kilish ma'lum tizim asosida amlga oshiriladi. U bolalarni tabiatda buladigan voqea, hodisalarni kurish, taxlil qilish asosida turli faoliyatlardan boshlanadi. Shundan keyin bolalarda fikrlash qobiliyati shakllanadi. Turli muammolar paydo bo'ladi. Bolalar bu muammolarni echishni uylab mulohaza yuritadilar Natijada bolalar tabiatda buladigan o'zgarishlar. Ob-havo, uning o'zgarishlari, sabab-oqibatlar haqida tabiatdagi o'zaro bogliqliklar haqida ilmiy tushunchalar paydo bo'ladi. "Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturida" belgilangan bolalarga singdirish uchun bolaning bilishga- bo'lgan faolligini va amaliy faoliyatini oshirish zarur. Buning uchun tarbiyachi dasturdan izlanuvchanlik faoliyati yuli bilan o'rganiladigan tabiat haqidagi bilimlarni ajratib olmog'i kerak.

Mavzu yuzasidan savollar.

- 1.Tabiat bilan tanishtirishda ish shakllarining kaysilaridan foydalaniladi?
- 2.Mashgulotlarning kandy turlari mavjud?
- Z.Turli guruhlarda mash!ulot utkazish tartibi va mazmanini ieoxlab bering.
- 4.Noan`anaviy mashgulotlarga reja takvim tuzing.

XP. MAVZU: SAYR. EKSKURSIYA - TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING ISH SHAKLI

Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z ulkamiz tabiati, usimliklar dunyosi, hayvonot olami haqida bilim berishda tabiatga utkaziladigan ekskursiya va sayrlar haqida talabalarga bilim berish.

Reja:

- 1.Ekskursiya, uning axmiyati va mazmuni.

2. Ekskursiya turlari.

3.Sayr, uni utkazish uslubi

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishgiruvchi ish shakllaridan biridir Ekskursiya davomida bolalar usimlik va hayvon hamda jonsiz tabiat bilan yaqindan tanishadilar.

Ekskursiya jarayonida bolalar tabiatning go'zalligini ko'rib katta taassurot olib hissiyotlari rivojlanadi. Shu asosda jonajon Uzbekiston ona tabitiga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tarbiyalanadi. Ekskursiyadan mashgulot turi sifatida o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Ekskursiya uning turlari

Tabiatshunoslik		qishloq, xo'jaligi
Bog', o'rmon, daryo, o'tloq		Dala, parrandachilik fabrikasi, ekinzor.

Ekskursiya mashgulotlarining afzalligi shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko'rish imkoniyatiga ega bulgan o'zaro aloqdlar haqida dastlabki dunyoqarash tasavvurlarini, olamny ilmiy tushunishni shakllantirish imkonini yaratadi. Urmon, dala, daryo, ko'l qirg'oqlariga uyushtirilgan ekskursiya bolalarning dikkatini jalb kiladi. tarbiyachi rahbarligi ostida guruh hamda tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlar turli-tuman materiallar to'plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni urganishga qizik, ish usadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning x.tskshterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadi.

Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taasurotlar koldiradi. Estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish Vatanga muhabbat shakllantiriladi. Ekskursiyalar mazmuniga ko'ra: tabiatshunoslik ekskursiyasi; qishloq xo'jalik ob`ektlariga ekskursiya turlari va bo'linadi. Tabiatshunoslik ekskursiyaga kirish suhbat, jamoa bo'lib kuzatish, bolalarning yakka mustakil kuzatishlari va tabiatga oid materiallar tuplash bolalarning e'tiborini tabiatning umumiy ko'rinishiga jalb etadi.

Ekskursiya qismlarining mikdori va ularni utkazish izchnlligi ekskursiyaning maqsadi, ob-havoga qarab o'zgartiriladi. Bolalar ekskursiyalarda predmetlarning xarakterli xususiyatlariga oid bilimlarni mustahkamlaydilar, ularning belgisini so'z bilan ifodalaydilar, o'simlik, hayvonlarning qismlari nomlarini yodda tutadilar. Ekskursiya insonning tabiatga qanday ta'sir etishini, usimliklarni qanday o'stirishi va hayvonlarni qanday parvarish qilishni ko'rgazmali ko'rsatip. imkonini beradi Bu erda bolalar asosiy mehnat qismlarini bi; qanchasi bilan tanishadilar. Bu ekskursiyaning uziga xoslip shundaki. bola inson faoliyatyni ham, u ta'sir etayotgan tabiatni ham kuzatish i mumkin. Qishloq xo'jalik ekskursiyalarini katta mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida utkaziladi. Ekskursiyani uyushtirif guruxdagi mashg'ulotni uyushtirishdan murakkabroq. Shuning uchun uning muvaffaqiyatlp bo'lishi tarbiyachi va bolalarning unga puxta tayyorlannshlariga bog'liqdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda sayrdan keng foydalaniladi. Sayr vaqtida tasavvurlarni shakllanishi uchun uzoq, muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Tabiat hodisalarii kundalik kuzatishlar tasodifiy bo'lmasligi lozim, Bularni tarbiyachi oldidan rejalashtirishi lozim. Sayr vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni mashgulot maqsadiga ko'ra uyushtiriladi.

Ikkinchi kichik guruxdan boshlab maksaddi sayr uyushtiriladi. Bu sayrlarda bolalarni yorqin tabiat hodisalari bilan tanishtiriladi. O'rta, katta guruhlarda bir necha kun, ba`zan xaftalab davom etadigan hodisalarni kuzatish mumkin. Bu kuzatishni uzok, muddatli kuzatish deyiladi. Sayrlarda ob-havonn, osmonni, usimliklar gullarni, xazonrezlik. hayvonlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu turdagi kuzatishlar uzoq muddatli kuzatishlar deyiladi. Katta, tayyorlov guruxdarining bolalari sayrdagi kuzatishlarini tabiat kalendarda aks ettiradilar. Ular bu kalendarda jonsiz tabiat, hayvonlar. o'simli. hayotidagi yorkin mavsumiy uzgarishlarni, kishilarning mehnatlariii aks ettiradilar.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Ekskursiyaga ta`rif bering.
2. Ekskursiya turlari.
- 3.Sayrga ta`rif bering?
- 4.Sayr turlari:

XIII. MAVZU: MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHLARINI REJALASHTIRISH.

Maqsad: Talabalarga tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirish, rejalashtirish turlari haqida bilim berish.

Reja:

1. Mudiraning yillik rejasi.
2. Istik, bolli reja. Unda faslchilik printsiptan foydalanish. 3. Kundalik reja.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishdagi asosiy qo'llanma, manbaa "Bolalar bogchasida ta'lim tarbiya dasturi" xisoblanadi. Bunda umum pedagogik qoidaga va rejalashtirish printsiplariga amal qilinadi. Rejalashtirishning asosiy printsipti bola shaxsini aqlan, ahloqan shakllantirib, ularda tabiatga doyr bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish tabiatga nisbatan ilmiy nuqtai nazardan qarash boyicha oddiy tushunchalar berish, tabiatda katgalar mehnatini hurmat qilish va uni qadrlash, usimlik va hayvonlarni sevisish hamda asrash ruxida ta'lim berishdan ibvratdir. Buni amalga oshirish uchun pedagogax tarbiya ishlari turli rejalashtirilgan bo'lishi, bolalarning yosh hususiyatlari e|o'^bga olinib ta'lim-tarbiya berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilinishi, bunda turli-tuman ta'lim-shakllari va bolalar faolligi xisobga olingan bo'lishi lozim. Reja aniq; tizim asosida izchillik bilan oddiylan murakkabga qarab bir-biri bilan bogliq turli uslub va shakllardan iborat bo'lishi kerak. Rejalashtirishnig bosh maqsadi "Bolalar bogchasining ta'lim tarbiya dasturini" to'lik, amalga oshirshpdir. Shuning uchun ham yilning har bir fasli shunday rejalashtirilishi kerakki u uggan fasl xulosasi va kelgusida kilinadigan ishning davomi bo'lishi kerak. Rejaga turli xil ishlarni kiritilishi tarbiyachiga bolalarni har tomonlama tarbiyalashga yordam beradi.

Yillik reja umumiy vazifani qamrab olib butun pedagogik jamoannng maqsadini uziga mujassamlashtiradi. Ana shulardan biri tabiat bilan tanishtirish ishini maqsadga muvofiq tashkil qilishdir. Yillik rejada tarbiyachi bilan birga tabiat bilan tanishtirishning uslubiy ish shakllari rejalashtiriladi. Bunda pedagogik majlislarning mazmuni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi ilgor tarbiyachilarniig ish tajribalarini yoyish va ularni tuplash imkonlari (Mashg'ulot kuzatish, uni muhokama qilish, ekskursiya va

hokozolar) Rejada tabiatshunoslik xarakteridagi, uslubiy mavzularidagi topshiriqlar, yo'llanmalar o'tkazish rejalashtiriladi-

Yillik reja ota-onalar bilan tabiatni muhofaza qilishga doyr pedagogik tashvikrt tarkibot ishlari borish ham kiritiladi-

Yillik reja:

a) er maydonchasini tashkil qilish, ya`ni mevali daraxt ekish, poliz ekinlari uchun er ajratish va hokozolar.

b) tabiat burchagini tashkil etishda tarbiyachiga ko'maklashysh ya`ni uni jixozlash uchun kerakli ko'rgazmalar bilan ta`minlash.

v) turli ko'rgazma qurollar keltirish.

Istiqbol rejaları bir guruh uchun tuziladi. Uni yil fasllari boyicha tuzish maqsadga muvofiq. Chunki bu tabiatning rang - barang xususiyatlarini hisobga olish va tabiat hodisalari bilan bolalarni tanishtirishga imkon yaratadi. Istiqbolli reja tarbiyachiga dastur materiallarini tugri taqsimlashga yordam beradi. U bolalar bilimini, malaka va kunikmalarini ma`lum tizim asosida izchillik bilan borishini ta`minlaydi. Rejada jonsiz tabiat haqidagi bilim, usimliklar haqidagi bilim, hayvonlar hak, idagi, tabiatda kattalar mehnagi haqidagi ma`lumotlar kirish chadi Rejada tabiat burchagiga quyilgan vaqtancha va doimiy yangi ob`ektlar ham kiritilishi kerak. Bularni avvaldan aniqlashtirishdan maksad, usimlik va hayvonlar uchun ovqat, sharoit tayyorlab qoyishdir.

Rejada ta`limiy uyinlar. kinofil`m va diafilmlar. tabiatga doyr adabiyotlar, tarbiyachilar uchun tabiatga oid lugat adabiyotlari kiritiladi. Istikbolli rejada bolalarning er maydonchasi va tabiat burchagida bajaradigan mehnatlari o'z ifodasini tonadi. Bu ishlarni oddindan rejalashtirishdan maqsad zarur mehnat asboblari sharoitini oldindai tayyorlab quyishdir. Asosiy kuzatish jonli va jonsiz, tabiatda kishilar mehnatini faellar buyicha o'zgarishini aniklashdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy shakli - kundalik ish rejasini tuzishdir. Bu reja yilning har xil faslini o'z ichiga oladi. Yosh tarbiyachilar bajaradigan ishlarini 2 xaftaga tuzib olishlari maqsadga mufovikdir.

Kundalik rejani tuzishda mashgulot utishning rejalashtirishdan boshlash lozim. Mashgulot - dastur mazmuni bulgan tabiat bilan tanishtirish ishini kunlik hayotda amalga oshirish va tabiatshunoslik ishining asosiy shaklidir. Kundalik rejada tabiat

burchagidagi kuzatish va mehnatning asosiy mazmuni uz aksini topishi kerak. Rejada kuzatashning maxsadi va kuzatish yullari va kuzatilgan ob`ektning natijalarini taxlil qilish ham kundalik rejada tabiat materiallari asosida harakatli uyinlarni bajarish ham qayd etiladi. Bajarish uchun qanday jihozlar zarurligi aniklanadi. Tabiatshunoslikka doyr ta`limiy uyinlardan foydalanishda ularning shakli, mazmuniga qarab ishlatish rejplashtiriladi. Tabiatshunoslikka oid ishlarni rejalashtirganda har bir yosh guruhning xususiyati hisobga olinib, ularning asosiy shakllaridan foydalanilib tabiat bilan tanishtirish uslublari asosida tuziladi. Tarbiyachi bajarilgan ishni kundalik ish rejasida hisobga olib boradi.

Mavzu yuzasidan savollar.

- 1.Kundalik reja necha kun ga muljallab tuziladi?
- 2.Tabiat bilan tanishtirish ishining rejalashtirishning qanday turlari bor?
- 3.Rejalashtirishda qanday printsiplardan foydalaniladi?

XIV. MAVZU: MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING ISHIGA

USLUBIY RAHBARLIK

Maqsad: Talabalarga maktabgacha tarbiya muassasalarini boshqarish uslubiy rahbarlik. rahbarlikni asosiy yunalishlari xak`da bilim berish.

Reja

- 1 .Tabiat bilan tanishtirish ishiga rahbarlik qilish.
- 2.Tabiat bilan tanishtirish ishiga rahbarlikniig asosiy yunalishlari.
- 3.Uslubiyot xonalarining ish mazmuni va uni tashkil etish.
4. Mudira va tarbiyachilarning ilgor ish tajribalarini urganish va ommalashtirish.

Xalq maorifining birinchi tizimi xisoblangan maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarni har tomonlama rivojlanishida, ularni maktab ta`limiga oila bilan uzviy hamkorlikda tayyorlaydi.

Bolalar bog'chasining boshqarishda asosiy rolni bog'cha mudirasi oynaydi. Mudiraning asosiy vazifasi bog'cha jamoasi bilan birgalikda "Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasgurini" barcha vazifalarini amalga oshirishdir. Maktabgacha tarbiya muassasi mudirasining faoliyati uch yo'nalishda:

1. Tarbiyaviy - uslubiy ishga rahbarlik.

-Dastur vazifalarini vahtida bajarishga yordam kursatash; ish malakasini oshirish;

-Ilg'or pedagogik tajribani urganish va amalda tadbir etish.

2. Xujalik masalalarini hal qilish

3. Ota-ona va keng jamoatchilik orasida pedagogik bilimni berish.

Bolalar bogchalarida uslubiyatchi va mudira ta'lim-tarbiya ishiga birgalikda javobgar shaxs bulib hisoblanadi.

Uslubiy ishlarga quyndagilar kiritiladi.

1) Tarbiyachiga uslubiy yordam berish, nazorat qilish;

2) Tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini targibot etish;

3) Tarbiyachilarning tabiat uslubiyotidan malakasini oshirish;

4) Ota onalar urtasida tabiat bilan tanishtirish bilimni targibot etish.

Uslubiy xonalarda tabiat bilan tanishgirish uchun zarur bulgan adabiyotlar, kurgazma qurollar, tarbiyachilar tomonidan tayerlangan qul ishlari bulishi darkor. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya kontseptsiyasi. maorif vazirligining buyruq, farmonlari, tavsiyalar, uslubiy xatlar ilg'or tarbiyachilarning istig'boli hamda kundalik rejaliri. ochiq mashg'ulotb oyin muhokamalari, ota-onalar uchun tavsiyalar berilishi kerak.

Rahbar tarbiyachining o'z uslub va usullari hazinasida ilg'orlar ishini tajribalarini hamisha talil qilib va anglab to'g'ri va ongli tarzda boyitishga o'rgatish lozim.

Mudira bolalarning har tomonlama rivojlanishlari uchun barcha shart-sharoitlarini yaratmogi zarur. Mudiraning ishi ijodiy hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasi murakkab organizm, mudiraning ishi esa kun kirralidir. Mudira-davlat muassasasining rahbari, shuning uchun u doimo o'z ustida, ijodiy izlanishi, tabiat haqidagi qrnun va qarorlarni bilib, o'rganib borishi davlatimizning hozirgi bosqichida ichki va tashki siyosatini bilishi hamda amaliy faoliyatda unga amal qilishi kerak.

Mudira keng va chuqur ma'lumotli yuqri saviyali mutaxassis bulishi, tarbiya jarayonini yaxshi anglab etgan bulishi zarur. Maktabgacha tarbiya muassasasida bolalarni tarbiyalash mudira va katta tarbiyachi-metodistning o'zaro hamkorlishdagi uslubiy rahbarligi qanchalik uyushqoqlik reja asosida samarali amalga oshirilayotganligiga bogliq bo'ladi. Uslubiy ishda uyushqoqlik, reja asosida, kuyilgan vazifalarning imkoni boricha qisqa muddatlarda hal etilishini ta'minlay bilishi, istiqbolini ko'ra olish va unga jamoani qiziqтира bilish muximdir.

Bog'cha mudiralari o'z qo'l ostida ishlaydigan tarbiyachilarni umumiy bilimlarini xususan tabiat sohasiga oid bilimlarini tinmay oshirib borishi tabiat burchagini tashkil etish va uni yangi qushimcha materiallar bilan jihozlashda maslaxatlar berish, Yo'l yo'rikdar ko'rsatishi, tarbiyachi bilan birga tabiatga ekskursiyalar uyushtirish biologiyaga doyr adabiyotlarni aniqlash va ularni to'plash ishiga aktiv yordam ko'rsatish lozim. Bundan tashkari ota-onalarni bogcha maydonchasida tabiatshunoslikka oid ishlarda faol ishtirok etishga jalb etadi, bolalarni tabiatni sevish, uni asrab-avaylab ustiradigan kishilar bulib etishish ruhida tarbiyalan ishiga bevosita rahbarlik qiladi. Mudira umumiy ota-ona majlisini o'tkazadi, unda bogcha maydonchasida kilinadigan ishlarni ota-onalari bilan hamkorlikda bajarish rejasini tuzadi. Bog'chalarda bunday uslubiy rahbarlik turli shakllarda olib boriladi: pedagogik kengash, mashgulot, sayr, ekskursiya, oyin, tabiatni kuzatish, pedagogik xonani ishini tashkil etish er maydonchasida kilinadigan ishlarni maslahatlashib olish guruxlaridagi tabiat burchagini ahvolini tahlil qilish. Bundan tashqari bolalar muassasalariga doimo olib boriladigan ilmiy - tekshirish ishlari va ularning natijalarini hayotga keng joriy etmogn zarur. Ma'lumki, bogchalarda tabiat bilan tanishtirishning yangi-yangi uslub va shakllarni kuzatish, amaliy mashgulot va suz vositasidagi ilmiy izlanishlar natijasidan ham keng foydalanishimiz kerak. Biz bu ishlarga yosh kadrlarni. talabalarni keng jalb etmogimiz darkor. Bogchalarda tarbiyachilarning aqliy - nazorat saviyasi. pedagogik mahorati va tabiat qonunlarini ilmiy asosda tushinib bevosita mudira raqbarligida amalga oshiriladi. Qabul gatii kridaga muvofiq.har bir tarbiyachi xalq maorifi bo'limi tamonilan tashkil etilgan kurslarda har yilda bir marta o'z malakasini oshirib borishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Uslubiy rahbarlik deganda kimning rahbarligini tushunasiz?
2. Mudiraning faoliyati necha yunalishda amalga oshiriladi?

3. Uslubiy ishlarga nimalar kiradi?

XV. MAVZU: KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDAN VA TABILTSHUNOS-LIKDAN AMALIYOT KURS I NI O'QITISH

Maqsad: Talabalarga kasb-hunar kolleji o'quvchilariga tabiat bilan tanishtirish fanidan va tabiatshunoslikdan amaliyot kursini uqitishning ahamiyati, uning mazmuni, tuzilishi haqida bilim berish.

Reja:

1. Tabiat bilan tanishtirish fanining ahamiyati.
2. Dasturning tuzilishi va mazmuni.
3. O'quv qurollari va dare turlari.

Hozirgi kunda davlatimizning bosh u sta vor vazifalaridan biri bu chuqur bilimli, etuk, dunyo qarashi keng, yuqrrri saviyali kadrlarni tayyorlashdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun Uzbekiston Prezidentining bevosita boshchiligida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yaratildi Bu dasturda ta`limning boskichlari va asosiy 5 ta bugini. vazifalari aniq ko`rsatib berilgan. Uzluksiz ta`lim tizimi - maktabgacha ta`lim, - umumurta ta`lim, - oliy ta`lim, -oliy ta`limdan keyingi ta`lim, - malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlashdan iborat.

Yuqoridagi ta`lim tizimlardan biri uch yillik urta maxsus kasb hunar ta`limidir. Kasb - xunar kollejlari ukuvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoq.atlarini bilim va kunikmalarini rivojlantiridi, ularga tanlagan yunalishlari buyicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Yaxshi kasb-hunar egasi bo`lish insonning eng katta ziynati bo`lib, uning butun hayoti davomida katta foyda keltiradi. U farogatga, kamolatga etadi va o`z kasbi orqali izzat - ikromga ega bo`ladi. Kasb - hunar kollejlarida o`qitiladigan "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uslubiyoti va tabiatshunoslikdan amaliyot" kursining vazifasi bulajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan "Bolalar bogchasi ta`lim-tarbiya dasturi"ga muvofiq ish olib borishga o`rgatishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ularga ta`lim-tarbiya berish vazifalari amalga oshiriladi

O'quvchilar bu kureni urganayotgan vaqtlarida amaliy mashg'ulotlarning ish rejasi va dare reja taxririni tuzish bog'chada bolalarni tabiat bilan tanishtirish boyicha kilinadigan ishlarni kuzatish va uni o'zlari olib borishlari zarur li gini bilib boradilar Mana shu kureni o'qitishning ahamiyati shundaki, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun kadrlar tayyorlashda uning o'ziga xos o'rni hamda qimmatli bor. Bu kurs faqat maktabgacha tarbiyachilarning bogchalarda tabiatga doyr mashg'ulotlar utkazish bilan tanishtiribgina krlmay, ularni jonli va jonsiz tabiat, ularning biologik xususiyatlari, shuningdek ularni parvarishlashda bolalarda oddiy kunikmalarni hosil qilish bilan tanishtiriladi-

O'quvchilar kureni ukitish davomida ham nazariy ham amaliy bilim oladilar. Har bir mavzu amaliyot bilan porlab olib boriladi.

O'quvchilar bolalarni tabiat bilan tanishtirish kursini ukish davomida O'zbekistonning iqlimi, toglari, daryolari, vohalari yil faellarini uziga xos xususiyatlari bilan tanishtiriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uslubiyoti boshka uslubiyatlar bilan uzviy boglikdir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishida ularning psixologik holatiga, fikrlash qrbiliyatiga sezgilarning taraqqiy etishiga katta ta'sir etishni yaxshi bilish lozim.

Kursning dasturi shunday tuzilganki, shquvchilar ushbu uslubiyatni urganish bilan birga tabiatshunoslikdan amaliyot o'tkazish yullari bilan ham to'liq tanishadilar. Uning maqsadi ukuvchilarning jonajon o'lkamiz tabiati, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashib bolalar muassasalari koshida qsimlik hayvonlarni parvarish qilish tabiat burchagi, ekinzor, gulzor, meva bog'lar barpo kilishga urgatishdan iborat. Bu ko'rsning dasturi ilmiy asosda tuzilgan bulib, mavzular ketma-ketligi, pedagogik maqsadga va predmetning mazmuniga asoslangandir.

Dasturning har bir mavzusida amaliy mashg'ulotda o'rganiladigan masalalar ajratilgan. Dasturda tavsiya etilgan usullar va uslublar ukuvchilarning mustakil faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi.

Dastur asosan 7 qismdan iborat bulib, ular quyidagilar.

1. Bog'cha bolalarining tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati va vazifalari.
2. Mahalliy o'lka tabiati.
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish boyicha bogcha dasturi.
4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari va uslublari.

5. Tabiat burchagi va er maydonchasi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy vazifasidir.

6. Bolalarni uy va yovvoyi hayvonlar bilan tanishtirish.

7. Bolalarni yil faellari bilan tanishtirish: kuz, kit, bahor, yoz. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish kursini maqsadga muvofiq uqitishda o'kuv qurollarini ahamiyati beqiyos katta. O'quv kurollarini turi juda kup bo'lib, ular har bir mavzu mazmuniga qarab o'zgarib, yangilanib boradi. Kollejlarda tabiatshunoslikka doir kabinetlarga har bir yosh guruhning xususiyatini hisobga olgan holda o'simliklar joylashtiriladi. Kabinetda tabiat burchagi ham tashkil etilib. unda akvarium, kushlar, hayvonlar ham saqlanishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Tabiat bilan tanishtirish dasturini mazmuni, bulimlari qaysilar?
2. Pedkollejlarning dasturlari.
3. Darsda o'quvchilarni faollashtirish yo'llari.
3. Tabiat bilan tanishtirishda qaysi adabiyotlardan foydalaniladi?

TAYAICH SO'ZLAR

1. Ekologiya - yunoncha suz bulib, 1868 yilda nsmis olimi E.Gekel asos solgan EKOS - turar joy - logika fan, degan ma`noni bildiradi.

2. Har tomonlama - aqliy. ahloqiy, jismoniy, nafosat tarbiyasi, vatanparvarlik, ekologik tarbiya, iktisodiy tarbiyalash.

3. Bolalarni tabiat - beriladigan bilimlar bolalar yoshiga mosligi bilan tanishtirish printsiplari.

4. Ilmiylik printsiipi - bolalar yoshiga moe, oddiy ilmiy bilim berish.

5. Ko'rgamalilik printsiipi - har bir bilim ilmiy kurgazma asosida berish.

6. O'lkashunoslik printsiipi - uz ulkasi, tabiati, usimliklar dunyosi. hayvonot olami haqida.

7. Entsiklopedik printsipi - osmon jismlari, hayvonot olami, usimliklar dunyosi, tabiatshunoslik haqida bilim berish.

8. Faslichilik printsipi - har bir fasl haqida choraklarga bo'lib, bilim berish.

9. Tabiat bilan tanishtirish dasturi. Davlat xujjatlari bulib hisoblanadi.

10. Jonli tabiat - o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, hashoratlar, baliqlar, qushlar.

11. Jonsiz tabiat - osmon jismlari, qor, yomgir, suv, tuproq, kum, shamol, bulut, chaqmoq, do'l, kamalak.

12. Dasturni murakkablashtirib borishi - tabiat haqidagi bilimlarni guruhdan - guruhga murakkablashib borishi.

13. Gazonlar - er maydonchasi yo'laklarini maysalar bilan qoplash

14. Kuzatish - atrof muhitni maqsadga muvofiq reja asosida kuzatish.

15. Uzoq, muddatli - yil fasllarini, o'simlikni urug'idan to urug'igacha; bakani rivojlanishini, har bir faslda daraxtlarni kuzatishdir.

16. Qisqa muddatli - chaqmoq chaqish, qor, yomg'ir yog'ishini uchib kelgan qushlarni, bahorgi gullarni kuzatish.

17. Solishtirma kuzatish - pishgan meva bilan xom mevani karga bilan zagchani, bir xil turdagi kurinishi turli xil meva, gullarni solishtirib kuzatish.

18. Metod - kurgazmali, amaliy, ogzaki.

19. Kurgazmali - raem asosida, tabiat ob`ektlari, diofilm, kinofilm.

20. Amaliy metod - oyin, oddiy tajribalar mehnat.

21. Og'zaki metod - suhbat, badiiy adabiyotlarni o'qish, topishmoq, she`rlar.

22. Suhbat - kirish suhbat, yakuniy suhbat.

23. Oyni turlari - ta`limiy, harakatli voqeaga oid, ijodiy uyinlar.

24. -Mashgulot turlari. -Yangi bilim beruvchi, bilimlarni aniqlovchi, bilimlarni mustahkamlovchi, no`ananaviy mashgulot.

25. -Ish shakllari - mashgulot, ekskursiya, sayr.

26. -Ekskursiya - tabiatshunoslik, qishloq xo'jaligi, ekskursiyalari.
27. -Tabiatshunoslik ekskursiya - bog', o'rmon, daryo, o'tloq.
28. Qishloq xujaligi - dala, parrandachilik fabrikasi, ekinzor, gulzor.
29. Reja - yillik, istiqbollik, kalendar kundalik.
30. Yillik reja - Mudirani tabiat bilan tanishtirish uchun shart - sharoit yaratish.
31. Istikbol reja - bir fasl, bir chorakka tuziladi.
32. Kalendar - kundalik reja - 10-12 kun ga muljalanadi.
33. Uslubiy raxbarlik - mudira, katta tarbiyachi, ish rahbarligi.
34. Mudirani faoliyati - ser qirra, xujalik, ilmiy uslubiy faoliyati.

A D A B I Y O T L A R

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida (xavsizlikka taqlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari).T., "O'zbekiston".1997 yil.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston tarakqiyotining poydevori. "O'zbekistan Oliy Majlisi IX seesiyasida so'zlagan nutqi" 1997 yil.
3. Kadrlar tayyorlash boyicha. "Milliy dastur". T. - 1997 yil.
4. O'zbekistan Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". T. - 1997 yil.
5. O'zbekistan Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontseptsiyasi. T. - 1992 yil.
6. Maktabgacha tarbiya muassasi tugrisidagi Nizom. T. - 1995 yil.
7. "Bolalar bogchasida ta'lim dastur i" - T., 1993. 1999, 2000 yillar.
8. Maktabgacha tarbiya jurnali.
9. "Doshkolnoe vospitanie" jurnali 1989 №5. 1990 №1, 10.2001 №4, 5.
10. K.Hoshimov va boshqalar. "Pedagogika tarixi". Qo'llanma. T., "O'qituvchi" 1996 yil.
11. O.Xasanboeva va boshqalar "Pedagogika tarixi". Qo'llanma. T.. "O'kituvchi" 1997 yil.

12. J.Tulenov. E.Gofurov. Falsafa - T.; "O'qituvchi". 1997 yil.
13. J.Tulenov. Qodriyatlar falsafasi. T., "O'qituvchi". 1996 yil.
14. E.Y.Yusupov. Falsafa. T., "Sharq". 1999 yil.
15. A.K.Munavvarov. "Pedagogika". T., "O'qituvchi". 1996 yil.
16. A.To'xtaev, A.Xamidov. EkologiY. T.. "O'qituvchi", 1994 yil.
17. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T., "O'qituvchi", 1984yil.
18. M.M.Markovskay. Bolalar bogchasida tabiat burchagi. T., "O'qituvchi", 1991 yil.
19. V.A.Dryazgulova "Didakticheskie igri dlya oznakomleniya doshkolnikov rasteniyami". M., "Prosveshenie" 1981 g.
20. N.F.Vinogradova. Umstvennoe vospitanie detey v protsesse oznakomleniya s prirodoy. M. "Prosveshenie". 1982 g.
21. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya bernsh. T., "O'qituvchi". 1995 yil.
22. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2000 yil.

